O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

NamMQI
O'quv-uslubiy boshqarma
№ 99
«30» 08 2024 y.

"TASDIQLAYMAN"
Namangan muhandislik-qurilish instituti rektori
Sh.T.Ergashev
2024 yil "30" 08

# MUTAXASSISLIKKA KIRISH
fanining
# O'QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 1 000 000 – Xizmatlar |
| Ta`lim sohasi: | 1 020 000 – Gigiyena va ishlab chiqarishda mehnat muhofazasi |
| Ta`lim yo`nalishi: | 61020200 – Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (tarmoqlar bo'yicha) |

Namangan-2024

| Fan modul kodi MK1106 | O'quv yili 2024-2025 | | Semestr I | | ESTS – Kreditlar 6 |
|---|---|---|---|---|---|
| Fan modul turi Majburiy fanlar | Ta'lim tili O'zbek | | | | Haftalik dars soatlari 4 |
| 1 | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari, soat | Mustaqil ta'lim, (soat) | | Jami yuklama (soat) |
| | Mutaxassislikka kirish | 76 (ma'ruza 46, amaliy mashg'ulot 30) | 104 | | 180 |

2

**I. Fanning mazmuni**

**Fanning maqsadi** talabalarga hayot faoliyati xavfsizligi, mehnat muhofazasi tushunchalari, ishlab chiqarish sohasida yuzaga keladigan zararli va xavfli omillar, ularning kelib chiqish sabablari, hayot faoliyati xavfsizligi tarixi, organizmga salbiy ta'sir etuvchi omillar, ularga qarshi kurash choralari, mehnat qonunchiligi, qulay mehnat sharoitlari, ularni yaratish usullari kabilar haqida o'rgatish hamda ularni amaliyotda tadbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.

**Fanning vazifasi** talabalarga institutining qisqacha rivojlanish tarixi, strukturasi, o'quv jarayonini tashkil etish, talabalar bilimini baholash maqsadida nazorat qilish, kafedra tarixi, inson faoliyati davomida unga salbiy ta'sir etuvchi omillar, ularga qarshi kurash choralari, mehnat qonunchiligi, O'zbekiston Respublikasida sanoat korxonalarining ishchi va xodimlari kasb kasalliklari va jarohatlanish olishlari oldini olish, jarohat olgan insonlarlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish kabilar to'g'risida dastlabki tushunchalar berishdan iborat.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**Maruza mashg`ulotlari**

**1-mavzu: Fanning mazmuni. Baholashning reyting tizimi.** Kirish. Reyting tizimi haqida ma'lumot. O'zbekiston xalqining mustaqillik tufayli qo'lga kiritgan imkoniyatlari. O'zbekiston Respublikasida Oliy va o'rta maxsus ta'limining shakillantirilishi haqida.

**2-mavzu: NamMQIning tarixi, tizimi, ichki tartib qoidalari.** NamMPIning tarixi, tizimi, ichki tartib oidalari, o'quv-tashkiliy va ilmiy-ma'rifiy ishlari bo'yicha istiqbol rejalari. NamMPIda o'quv jarayonining shakillantirish turlari va ularning mohiyati. O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraiyotining dadil odimlari va milliy iqtisodiyotimiz xalqaro nufuzining oshib borishi.

**3-мавзу: O'quv jarayonida bibliografiya asoslari.** Kutubxona va uning ahamiyati. Axborot resurs markazi va internet tizimlaridan foydalanish qoidalari.

**4-mavzu: Hayotiy faoliyat xavfsizligi kafedrasining ta'rixi.** Hayotiy faoliyat xavfsizligi kafedrasining ta'rixi. Mutaxassislikni tamomlagan talabalarning sohani rivojlantirishda erishgan yutuqlari va xalq xo'jaligiga qo'shgan xissalari.

**5-mavzu: Hayot faoliyati xavfsizligi faninig tarixi.** «Hayot faoliyati xavfsizligi»ning mehnat muhofazasi asosida tug'ilishi. M.V.Lomonosov



nazariyasining asoslari. Mehnat muhofazasi nazariyotchilarining ijobiy kashfiyotlari va bu nazariyaning rivojlanishi.

**6-mavzu: Ishchilar mehnati muhofazasining paydo bo'lishi va rivojlanishi.** Ishchilar mehnati muhofazasining paydo bo'lishi. Rivojlangan mamlakatlar va O'Zbekistonda mehnat muhofazasining rivojlanishi.

**7-mavzu: Sanoat ishlab chiqarishida ishchilar mehnat muhofazasining tarixi.** Ishchilarga salbiy ta'sir etuvchi omillar va ularning turlari. Zararli omillarning moddiy va moddiy bo'lmagan turlari.

**8-mavzu: Xavfli omillarning ishlab chiqarishga va inson salomatligiga salbiy ta'sirini tushuntirish usullari.** Xavfli omillar, ularning kelib chiqishi. Xavfli omil turlari. Xavfli omillarning insonga ta'siri.

**9-mavzu: Mehnat muhofazasining asosiy mazmunini internet ma]lumotlarini olish usullari.** Mehnat muhofazasi faylini toppish. Mehnat muhofazasi va uning asosiy vazifasi. Mehnat muhofazasi davlat siyosati darajasida.

**10-mavzu: Mehnat muhofazasining huquqiy asoslari.**
Mehnat to'g'risidagi qonunlar. Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar. hamda fuqaroning huquq va erkinliklari kafolatlari. Standartlar tizimlari vazifasi va ularning turlari.

**11-mavzu: Mehnat muhofazasini tashkil etishda korxona rahbarining asosiy vazifasi.** Mehnat muhofazasini tashkil etish. Mehnat muhofazasiga doir asosiy me'yoriy hujjatlarni tayyorlash qoidalari. Korxona rahbari vazifalari.

**12-mavzu: Mehnat muhofazasidagi o'tkaziladigan instruktaj turlari, mehnat muhofazasi muhandisining vazifalari.** Yangi ishga kiruvchilar uchun instruktajlar o'tkazish tartibi. Hayot faoliyati xavfsizligining tashkiliy masalalari. Mehnat muhofazasi muhandisi vazifalari.

**13-mavzu: Mehnat muhofazasini tashkil etish.** Korxonalarda mehnat muhofazasiga oid ishlarni tashkil qilish. Korxonalarda mehnat muhofazasini tashkil etishda rahbarlarning vazifalari. Mehnat muhofazasiga doir tadbirlarni rejalashtirish va mablag' bilan ta'minlash. Ergonomika. Ishlab chiqarish estetikasi va madaniyati.

**14-mavzu: Ishchi va xodimlar salomatligi buzilishiga qarshi choralar ko'rish.** Korxonalarda ishchi xodimlar salomatligini saqlash. Ishchi va xodimlar salomatligi buzuvchi omillar va ularga qarshi kurashish usullari. Korxona ishchilarining salomatligi yomonlashishining asosiy sabablari. Ishchilar salomatligini saqlash usullari. Himoya vositalari va ular bilan ishchilarni ta'minlash qoidalari. Ishchilar salomatligini saqlashga mas'ul kishilar.

**15-mavzu: Ishchilar salomatligini tiklashdagi asosiy imtiyoz va qonunlarni NamMQI axborot markazida o'rganish.** Ishchilar salomatligi korxonadagi zararli yoki xavfli omillar tufayli yomonlashganda amalga oshiriladigan ishlar. Ishchilarga maishiy xizmat xonalarini ish joyiga mos holda tashkil etish. Ishchilar salomatligini nazorat qilish usullarini adabiyotdan o'rganish.

**16-mavzu: Korxonadagi mehnat muhofazasi muhandisining vazifalari. Ishchilar salomatligini saqlashda chet el va O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlar.** Korxonadagi mehnat muhofazasi muhandisining vazifalari. Ishchilar salomatligini saqlashda chet elda amalga oshirilayotgan ishlar. Ishchilar

salomatligini saqlashda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlar.

**17-mavzu: Ishlab chiqarish sanitariyasi va mehnat gigiyenasi ahamiyatini tushuntirishning taqdimot usuli.** Ishlab chiqarish sanitariyasi va mehnat gigiyenasi. Ish joyidagi mikroiqlim sharoiti. Ish joyidagi haroratni aniqlash.

**18-mavzu: Texnika xavfsizligi va uning tashkil etilishini o'rganish.** NamMQI da texnika xavfsizligini tashkil etilishi. Texnika xavfsizligiga javobgarlik. Korxonada texnika xavfsizligi yoki mehnat muhofazasi xonalarining bo'lishi.

**19-mavzu: Elektr xavfsizligining ahamiyati.** Elektr tokining turlari. Elektr tokining inson organizmiga ta'siri. Elektr xavfsizligi.

**20-mavzu: NamMQIda elektr toklarini ulashga qo'yiladigan talablarni o'rganish.** Elektr qurilmalaridan xavfsiz foydalanish uchun qo'yiladigan umumiy talablar. Elektr tokidan zararlanishlarning yuzaga kelishi. Elektr tokidan zararlanishlar oldini olishda muhandislik ishlari.

**20-mavzu: Elektrdan jarohatlanish sabablari va ular oldini olish.** Elektr tokidan shikastlanish (jarohatlanish). Elektr tokidan shikastlanish oldini olishda texnik chora va individual himoya vositalari. Elektr xavfidan ogohlantirgichlar.

**21-mavzu: Elektrdan jarohatlanish oqibatlari va ular oldini olish.** Jarohatlanishga sarflanadigan mablag' va ularning qonuniy turlari. Jarohatdan moddiy zarar ko'rish asosi.

**22-mavzu: NamMQI 1-2-binolarida yong'in xavfsizligini o'rganish.** Moddalarning yonishi. Materiallarning olovga chidamliligini oshirish yo'llari. Antipirenlar haqida ma'lumotlar. Yong'in va uning kelib chiqish sabablari. Yong'in xavfsizligi.

**23-mavzu: O't o'chirish asboblari va vositalari, ularga qo'yiladigan talablarni o'rganish.** O't o'chirish vositalari, ularning turlari va vazifalari. O't o'chirish va yong'in signalizatsiyasi tizimlari. Ishlab chiqarishda yong'in xavfsizligini tashkil etish.

**III. Amaliy mashg'ulot bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Hayot faoliyati xavfsizligi tarixini internet ma'lumotlari asosida o'rganish.
2. Mehnat muhofazasi sohasini rivojlantirishda qonunchilikning o'rni.
3. Namangan muhandislik-qurilish institutida mehnat muhofazasi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va ularning tashkilotlarga tegishli bo'lgan hujjatlari.
4. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining umumiy mazmuni va ularni tahlil qilish.
5. Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo'yicha umumiy tushunchalar tahlili. Korxona ishchilarini texnika xavfsizligidan xabardor qilish.
6. Korxonalarda ishlab chiqarish turlariga mos holda yuzaga keladigan zararli omillar va ularning inson organizmiga ta'siri.
7. Korxonalarda uchraydigan elektr va yong'in xavfi hamda ularga qarshi xavfsizlik choralari.
8. Korxonalarda mehnat muhofazasini tashkil etishning zamonaviy usullari.
9. Mehnat muhofazasiga doir kasb kasalliklari va jarohatlanishlar bo'yicha internet ma'lumotlari va ularning tahlili.



10. Zilzila va uning salbiy oqibatlari tahlili. Zalzila davrida harakatlanish tartibini o'rganish.
11. Inson salomatligiga salbiy ta'sir etuvchi omillarga doir klaster tuzilmasi va ularni fan bo'limlariga doir tayyorlash.
12. Yo'nalishga kirish faniga doir test tuzish. Test savollarini fan bo'lim va mavzulariga doir shakllantirish.
13. Hayot faoliyati xavfsizligini tashkil etishda chet elda va Respublikamizda amalga oshirilayotgan ishlar.
14. Ishchilar salomatligini nazorat qilish usullari. Xavfli va zararli omillarni kamaytirish choralari va ularni amalga oshirishni o'rganish.
15. Jarohatlanish va kasb kasalligining tahlili. Birinchi tibbiy yordam va uni tashkil etish usullari.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'limni quyidagi topshiriqlarni bajarish orqali amalga oshiriladi:

- Seminar mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish hamda mavzular bo'yicha berilgan uy vazifalarini bajarish.
- Seminar mashg'ulotlardagi hisoblashlarni dasturiy ta'minot asosida amalga oshirish
- Korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlari davrida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararli omillar, O'zbekiston Respublikasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarga doir xavflar tushunchalari bo'yicha stendlar tayyorlash hamda nazariy asoslash bo'yicha hisobotlar tuzish
- Tavsiya etilgan asosiy adabiyotlardan tashqari qo'shimcha o'quv, ilmiy adabiyotlardan foydalanilgan holda mavzular bo'yicha taqdimot tayyorlash
- Hayot faoliyati xavfsizligini korxonalardagi vazifasini tahlil qilish
- Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan va sodir bo'lgan baxtsiz hodisalar bo'yicha yoritilgan video roliklar, tasviriy plakatlar tayyorlash
- Korxona ishchilarining hayot faoliyati xavfsizligi qoidalarini qo'pol buzishi yoritilgan video lavhalar tayyorlash.
- O'tilgan mavzular bo'yicha test topshiriqlari tuzish.

3 **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

Fanni o'zlashtirilishi natijasida talaba:

- Mehnat qonunlari, ishlab chiqarish faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararli va xavfli omillarni, ularning insonga ta'siri, unga qarshi choralar belgilash to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi;
- Ishchilar uchun mehnat muhofazasiga doir qonunlarni, zararli va xavfli omillar yuzaga kelishini oldindan bilishi, undan keyingi harakat tartibini, korxonalarga doir yong'in va portlash oldini olish, olovni o'chirish choralarini belgilash haqida bilishi va ulardan foydalana olishi;
- Mehnat muhofazasiga doir tushunchalarni o'rganish, qulay mehnat sharoiti, himoya vositalari kabi tushunchalarni o'rganishi bilan ishlab chqarish miqdor va sifati ortishiga erishtirish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

4 **VI. Ta`lim texnologiyalari va metodlari:**

| | |
|---|---|
| | • Ma`ruzalar;<br>• Seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• Guruh va kichik guruhlarda ishlah;<br>• Taqdimotlar qilish;<br>• Jamoa bo`lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| 5 | **VII. Kreditlarni olish uchun talabalar:**<br>Fanga doir nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarnini bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish. |
| 6 | **Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati**<br>**Asosiy adabiyotlar**<br>1. A. Mark, P. Friend James Fundamentals of Occupational Safety and Health. Bernan Press. Germaniya, 2007.<br>2. N.S.Baxriddinov. «Hayot faoliyati xavfsizligi». O'quv qo'llanma.-T.: "DIMAL", 2024, 371b.<br>3. A.T.Mamadaliyev., Z.N.Mamadjanov., M.M. Sobirov. «Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi». Darslik.-T.: "DIMAL", 2024, 416 b.<br>4. A.T.Mamadaliyev., Z.N.Mamadjanov. «Favqulodda vaziyatlar va aholi muhofazasi» Darslik.-T.: "LESSON PRESS". 2022,300b.<br>5. Narziyev Sh.M., Kurbonov Sh.X. Hayot faoliyati xavfsizligi. O'quv qo'llanma–T.:"Yangi nashr", 2019.– 234 b.<br>6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №1.<br><br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>7. Yuldashev O.R., Djabborova Sh.G., Xasanova O.T. Hayot faoliyati xavfsizligi. Darslik–T.:"Toshkent-Iqtisodiyot",2014.– 268 b.<br>8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.:O'zbekiston, 2023. –56 b.<br>9. "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi (yangi tahriri) O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2016 yil 22 sentyabr.<br>10. O'zbekiston Respublikas i Mehnat Kodeksi. -T.: 2022y.<br>11. Sh.K.Mahmudova. Kasb kasalliklari. Tibbiyot oliy o'quv yurtlari uchun darslik. –T: "Yangi asr avlodi", 2011, -494 b.<br><br>**Internet saytlari**<br>12. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.<br>13. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.<br>14. www.mintrud.uz – Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi sayti.<br>www.bilim.uz – OO'MTV sayti. |



| | |
|---|---|
| 7. | **Namangan muhandislik-qurilish instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut ilmiy-uslubiy kengashining «30» 08 2024 y.dagi 1 sonli majlis bayoni bilan tasdiqlangan.** |
| 8. | **Fan/modul uchun mas'ul:**<br>N.Baxriddinov – NamMQI "Mehnat muhofazasi va ekologiya" kafedrasi dotsenti.<br>N.Muminjonov - NamMQI "Mehnat muhofazasi va ekologiya" kafedrasi stajyor o'qituvchisi |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>Z.To'rayev – NamMQI Kimyoviy texnologiya kafedrasi professori, texnika fanlari doktori.<br>B.Axmedov – NamMTI dotsenti. |